

IMOM BUXORIYNING “BIRRUL VOLIDAYN” ASARINING ILMIY VA IJTIMOIIY AHAMIYATI

Axmedova M.B.

Urganch innovatsion university

*“Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi
stajyor-o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: “Birrul volidayn”, hadis, muhaddis, shogird, sharqshunos, ilmiy meros, dunyoqarash, ijtimoiy me‘zon, yaxshilik.

Ключевые слова: «Бирруль волидейн», хадис, мухаддис, студент, востоковед, научное наследие, мировоззрение, социальный стандарт, добро.

Key words: "Birrul volidayn", hadith, muhaddis, student, orientalist, scientific heritage, worldview, social standard, goodness.

Резюме:

Ushbu maqolada mashhur muhaddis qalamiga mansub “Birrul volidayn” asrining hozirgi kundagi ilmiy va amaliy ahamiyati, dunyo miqyosda o‘rganilganlik darajasi borasidagi fikrlar o‘rin olgan.

Резюме:

В данной статье изложены мнения о современном научном и практическом значении произведения известного писателя «Биррул Волайдейн» и уровне его изучения на мировом уровне.

Summary:

This article contains opinions on the current scientific and practical significance of the famous writer "Birrul Volidayn" and the level of its study at the world level.

Buyuk muhaddis, hadis ilmining sultoni Imom Ismoil al-Buxoriy hayoti va ilmiy merosi olimlar, tadqiqotchilar va sharqshunoslar tomonidan xalqaro darajada keng miqyosda keng o‘rganilib kelmoqda. Yurtimizda ham allomaning ma‘naviy merosi va ibratli hayoti jadallik bilan tadqiq etilmoqda. Buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyning hayoti va boy ilmiy-ma‘naviy merosini o‘rganar ekanmiz, uning dunyoqarashi, ichki olami g‘oyat ibratli va ko‘p jihatlari bilan har qanday davr uchun ham katta ahamiyat kasb etishini ko‘rishimiz mumkin. Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning “Birrul volidayn” asarida amallarning afzali – ota-onaga yaxshilik qilish ekani, ota-onaning



farzandi haqqiga qilgan duosi mustajob bo'lishi haqida va rahmdillikning fazilati kabi bir qator mavzulardagi jami 75 ta hadis jamlangan.

Misr Al-Azhar Islom tadqiqotlari majmuasi bosh kotibi, profressor Muhammad Nazar Ayyad, Rossiya Bulg'or islom akademiyasi professori Muhammad Ayman Zahroviy, Malaziya Islomni anaglash insituti ilmiy xodimi Muhammad Xusni Mohid Amin Imom Buxoriy asarlari yuzasida ilmiy izlanish olib borishgan. Turkiyalik hadisshunos olim, Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori Ahmad Yildirim o'z tadqiqotlari natijasidan kelib chiqqan holda Imom Buxoriyning "Al-jomi' as sahih" asari bugungi glaballashuv jarayonida ba'zi bir muammoli masalalarni yechishda asosiy manba bo'lib xizmat qilishini o'rgangan. Rossiya Federatsiyasi Oliy ta'lim Vazirligi tomonidan Ibragimov I.D, Chomaev Z.A. tomonidan "Hadis o'rganish nazariyasi va amaliyoti" (dastlabki bosqich) bo'yicha darslik yaratilgan. Unda hadislar uning leksik ma'nolari va shuningdek, hadislarini o'rganish yuzasidan topshiriqlar o'rin olgan. Buxoriyning hayoti va faoliyatiga bevosita bag'ishlangan monografik asarlar nisbatan kam. Oxirgi 15 yillik davrni sarhisob qiladigan bo'lsak, pokistonlik doktor Hasan Abdul Jabborning 2007-yilda Oksfordda nashr qilingan "Buxoriy" asarini keltirishimiz mumkin.

Maqolada Imom Buxoriyning "Birrul volidayn" asaridagi ta'limiy-axloqiy pedagogik qarashlar muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Asarning saqlab qolingani, jahon tillariga tarjima qilingan nuxsalarini ilmiy jihatdan nazariy tahlili o'rganiladi.

Imom Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, ijodiy faoliyati davomida yozgan asarlari yigirmadan ortiq. Barchamizga ma'lumki, Imom Buxoriyning eng mashur asari "Sahihul Buxoriy" butun islom olamining Qur'oni Karimdan keyingi eng ishonchli manba sifatida e'tirof etilgan. "Sahihul Buxoriy" va "Adabul mufrad" axloq-odob, ibodat, ijtimoiy mezonlarni belgilovchi manbai va umuminsoniy qadriyatlar namunalidir. Jumladan, ota-onaga yaxshilik bashariyat hayotidagi eng asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, ota-onasiga yaxshilik qilmagan kishi boshqalarga ham saxovat ko'rsatishdek xislatdan mahrum hisoblanadi. Shuning uchun ham hadisi shariflarga oid barcha adabiyotlarda ana shu mavzuga atab alohida asarlar yozilganini yo alohida boblar ajratilganini ko'rshimiz mumkin. Imom Ismoil al-Buxoriy mazkur mavzu doirasida "Birrul volidayn" asarini yozgan. Mazkur asarda ota-onani e'zozlash, duosini olish, xizmatida doim bo'lish borasidagi fikrlarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi. Unda ota-onasiga yaxshilik qilish ulug'lanadi. Ota-onaga oq bo'lish kabi yomon illatdan saqlanish lozimligi ta'kidlangan. Bu asar bir necha asrlar davomida insonlarlar orasida

Ibn Dilluyahdan naql o‘laroq tarqalgan. Keyinroq hadis rivoyat qilinadigan ilm majlislarida bu asar asta-sekinlik bilan yo‘qola borgan va oqibatda bizga qadar yetib kelmagan asarlar qatoriga kirib qolayozgan edi. Tadqiqotchil Bassam ibn Abdulkarim Hamzaviyning ta’kidlashicha[2], “Birrul volidayn”ni o‘zida saqlab qo‘ygan, shogirdlariga o‘qitgan mutaaxxirin ulamolardan biri – bu, imom, hofiz va sayyid Muhammad Abdulhay Kattoniydir. Imom Buxoriy ota-onaga yaxshilik mavzusida ko‘p hadis rivoyat qilgan. Bu nusxada silai rahm, farzand tarbiyasi va odob-axloq masalalariga doir hadislar ham keltirilgan. Imom Buxoriy “Jome’us sahih” va “Adabul mufrad”da ham ota-onaga yaxshilik mavzusiga doir hadislarini keltirgan.

Ota-onaga yaxshilik mavzusida Imom Buxoriydan boshqa ulamolar – Abu Is’hoq Ibrohim ibn Is’hoq Harbiy Bag‘dodiy Shofeyi (285/898), Abu Muhammad Qosim ibn Asbag‘ Qurtubiy Molikiy (340/952), Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad ibn Hayyon (369/980), Abu Muso Yumn ibn Ahmad ibn Yamn Tujibiy Tulaytiliy (390/1000), Abu Muhammad Hasan ibn Muhammad Xalol Bag‘dodiy (439/1048), Abu Bakr Muhammad ibn Valid Turtushiy Molikiy Andalusiy (520/1126), Jamoliddin Abulfaraj Abdurahmon ibn Ali ibn Muhammad ibn Javziy (597/1200), Taqiyuddin Ali ibn Abdul Kofiy Subukiy (756/1355), Jamoluddin Muhammad ibn Abdussalom Noshiriy Zubaydiy (906/1501), Abul Futuh Ahmad ibn Muhammad Halabiy Halaviy (1195/1781), Qutbiddin Abulvafo Umar ibn Muhammad Yofiy (1233/1818), Ahmad ibn Muhammad (1380/1960) ham “Birrul volidayn” nomli asarlar yozgan[3].

Imom Buxoriy yozgan asarlar orasida uning o‘zi “Birrul volidayn” deb nomlagan ixcham hadis kitobi borligiga hech qanday shubha yo‘q. Chunki, bu kitob uning qalamiga mansubligidan dalolat beradigan bir nechta dalil bor. Jumladan:


- “Birrul volidayn”ni uning shogirdi Ibn Dilluyah naql qilgan;
- hadis rivoyat qilgan bir guruh roviylarning o‘z silsilasi va shayxlari haqida so‘z yuritganida Imom Buxoriyni ham tilga olgani, buning Imom Buxoriyga yetib boradigan izchil sanadlari mavjudligi;
- Bir qancha ulamolar Imom Buxoriyning tarjimai holini yozganda mazkur kitob uning qalamiga mansubligini zikr qilgani;
- Ulamolar o‘z asarlarida bu kitobni zikr etganda Imom Buxoriyga nisbat bergani.

Hadis ulamolari ittifoq qilganidek, “Birrul volidayn”ni Imom Buxoriydan naql qilgan shaxs Ibn Dilluyahdir. Zero, ular asardagi isnodlarni aynan u orqali



kitobning o‘ziga qadar olib boradi va uni rivoyat qilguvchi shaxs sifatida Dilluyahni tilga oladi.

Imom Buxoriyning mazkur asari joriy 2014 yili nashrdan chiqarilgan qadimiy qo‘lyozmalardan hisoblanadi. Uni Bassam ibn Abdulkarim Hamzaviy va Abdul’atiy Muhyi Sharqoviy tahqiq va tadqiq qilgan[4]. Ular kitobning qo‘lyozmasi to‘g‘risida fikr yuritganda, bu Muhammad Abdulhay Kattoniyga tegishli Kattoniyya kutubxonasida saqlanayotgan yagona nusxa ekanini aytib, nashrga tayyorlashda aynan shunga asoslanganini ta’kidlagan. Sharqoviy qo‘shimcha ravishda bu yagona nusxa emasligi, Liviyadagi Ilmiy tadqiqot harakatlari markazida 1545-raqam ostida yana bir qo‘lyozma mavjudligi, lekin uni tadqiq qilish imkoni bo‘lmaganini aytgan[1].




Qo‘lyozmaning ilk sahifasida:

“Birrul volidayn” kitobi Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohimning asari. Bu kitobni undan Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Dilluyah rivoyat qilgan. Muhammad ibn Ahmad ibn Dilluyahdan Abu Ya’lo Hamza ibn Abdulaziz Muhallabiy[6] rivoyat qilgan.

Muhammad Abdulhay Kattoniyga tegishli Fos shahridagi Kattoniyya kutubxonasi, yozuvlarini o‘qish mumkin.

Keyingi sahifa:

Bu sahifa “Birrul volidayn” kitobidagi hadislarni Muhammad ibn Ismoil Buxoriy Abu Abdulloh Jo‘fiydan 328/940 yilda Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Dilluyah Daqqoq, undan Abu Ya’lo Hamza ibn Abdulaziz Muhallabiy rivoyat qilgani to‘g‘risidagi ma’lumot bilan boshlangan. Asarning asli Damashqda bo‘lib, Abdulhay Kattoniy uni Muhammad ibn Muhammad Muborak Hasaniy Jazoiriy Damashqiy[1]dan olgan. Ko‘chiruvchi xattot Muhammad ibn Muhammad Husayniy Halabiy[1] bo‘lib, kitob oxirida yozilganidek, hijriy 887/1482 yili yozib tugatgan.



Qo‘lyozma nusxaning so‘nggi sahifasi.

“Bu (nusxa)ni o‘jiz banda Muhammad ibn Muhammad Mansur ibn Ali Husayniy Halabiy 887/1482 yilning 28 shavvolida Qohiradagi Al-Azhar

jomesining tepasida o‘zi uchun olib qo‘ydi...!” mazmunidagi yozuv bilan nihoyalangan.

Shuningdek, unga Muhammad Abdulhay Kattoniy o‘z qo‘li bilan ushbu iboralarni yozgan: **“Bu kitobni fozil alloma Muhammad ibn Ahmad Ismoiliy Zarhuniy[8] kamina Muhammad Abdulhay Kattoniyning qo‘lida kattoma qasrida tinglab oldi. Bu 1324/1906 yilda, hajdan qaytayotganimda men bilan ko‘rishish uchun o‘sha yerga kelgan vaqtda bo‘ldi”.**

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, bu kamyob nusxa biri bo‘lib, ehtimol, bugungi kunda islom olamida yagonadir. Undagi hadislarning ayrimlari Hofiz Ibn Hajarning nusxasida ham mavjud. Bu esa mana shu nusxaning aniqligini quvvatlaydi. Lekin muallif,

nusxa ko‘chiruvchi va asar o‘qib berilgan shaxslarning tarixlari orasida tafovutlar bor. Bassam ibn Abdulkarim Hamzaviy: “Men o‘qib chiqqanimda anglab yetdimki, undagi iboralar bir-biridan farq qiladi. Masalan, taxminan birinchi yarmi asarning nomiga uyg‘un va aloqador. Chunki, ota-onaga yaxshilik haqida gap ketgan. Ikkinchi yarmiga keladigan bo‘lsak, garchi, undagi iboralarning aksar qismini shu mavzuga aloqador deyish uchun biroz taxmin qilish mumkin bo‘lsa-da, ular ota-onaga yaxshilik mavzusidan juda ham yiroq. “Birrul volidayn” bir necha yo‘llar bilan rivoyat qilingan bo‘lsa-da, barchasi Ibn Dilluyahga borib taqaladi. Undan bir guruh roviylar, jumladan, birinchilardan bo‘lib Muhallabiy “Birrul volidayn” kitobini rivoyat qilgan. Undan Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Umar ibn Xalaf Sheroziy Nishopuriy (398/1105), Abu Abdulloh Hokim, Hamza Muhallabiy, Abu Bakr ibn Favrak, Abu Abdurrahmon Sulamiy va ularning tabaqalarida bo‘lgan kishilar hadis tinglagan. Abu Bakr Sheroziydan Ibn Tohir Maqdisiy, Vajih Shahhomiy va Umar Saffor hadis rivoyat qilgan.

Darhaqiqat, ushbu kitobda rivoyat qilingan hadislar mazmunan har bir kitobxonning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan birga, insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi. Shunday ekan, hadislar yoshlarimizning komil inson bo‘lib shakllanishida muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, undan oiladagi muhitni sog‘lomlashtirish, ota-onalar haqlarini anglash, yoshlar tarbiyasi, jamiyatimizda ota-ona va farzand munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga solish maqsadida foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.



**Adabiyotlar:**

1. Imom Buxoriyning “Birrul volidayn” asari Imom Buxoriy Nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi ilmiy xodimi Barot Amonov 2023.
2. Hasanboyeva O. va boshqalar “Oila pedagogikasi” T.:2007
3. Hoshimov K., Nishonova S., Imonova M., Hasanov R. “Pedagogika Tarixi” Toshkent. “O‘qituvchi” 1996 39 b.
4. Хошимов К., Сафо Очил. “Ўзбек педагогикаси антологияси” Тулдирилган ва қайта шланган иккинчи наشري (I жилд) «O‘qituvchi» Нашриёт-Матбаа ижодий уйи тошкент - 2010
5. Ibrahim Zöhrab Oğlu Quliyev “Hədisşünaslığın Əsasları” Bakı2013 78b
6. Ибрагимов И.Д, Чомаев З.А. “Теория и практика изучения хадисов (начальный этап): хрестоматия”. Уфа: Изд-во БГПУ, 2018. – 170 с.
7. Исламов З, Рахимджанов Д, Нажмидинов Дж, Исмадова “История религий мира” Т.:«Yangiyul Poligraph Service» 2018, 144 с.
8. Иқтидорли талабалар илмий ахборотномаси. НамДУ 2021 йил 2525 4-сон.